

**TEXNOLOGIK TA'LIM DARSLARIDA XALQ HUNARMANDCHILIK  
TEXNOLOGIYASINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING KREATIV  
FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

**Soliyeva Lobar Sayfiddinovna**

*Jizzax Pedagogika Universiteti*

*Texnologik ta'lism yo'naliishi 5-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarning kreativligini oshirish xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** modernizatsiyalash, intellektual rivojlanish, STEAM, mashg'ulotlar turkumi

Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borishi uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limi tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlandi, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosida o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Uzluksiz ta'lism tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, ta'lism muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan tashqari mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lism tizimida raqobat muhitini kengaytirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.[1]

Umumta‘lim maktablarida fanlarni o‘qitish jarayonida fan-texnika taraqqiyoti, injeneriya, matematika va kundalik hayot bilan bog‘lab o‘rganishning STEAM (science, technology, engineering, art and mathematics) yondashuvi ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish dolzarb masaladir. STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berishda umumta‘lim fanlari bo‘yicha fanlararo bog‘lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan umumiyl reja. STEAM o‘ziga tabiiy fanlar, texnologiya, injenerlik, san‘at, ijodkorlik, matematika fanlarining amaliy jihatlarini umumlashtirib integratsiyalashni nazarda tutadi.

STEAM-kundalik hayotning ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta‘limning integrativ yondashuvini taqazo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad – ta‘lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ‘ib qilishga qaratilgan.

Xalqaro tajribalar asosida STEAMning joriy etilishi bugungi kunda ta‘lim tizimiga yondashuvni o‘rganish va ta‘limga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. O‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarga e‘tibor qaratish orqali irodani, jodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi.

Yuksak mehnat madaniyati mehnat kishilarining ajralmas sifatidir. Ushbu jarayonni o‘quvchilarga mehnat ta‘limi va kasbga yo‘naltirish hamda boshqa umumta‘lim fanlarini o‘qitishda tarbiyalab borish lozim. Mehnat madaniyati tushunchasiga mehnat shart-sharoitlari, go‘zalligi, qulayligi, mehnat jarayoni, muomala madaniyati va boshqalar kiradi. Nazariy va amaliy o‘quv mashg„ulotlarining xonalari, uning jihozlari va asbob-uskuna (stanoklar) ning bo‘yalishi nafis hissiyotlarni uyg„otishi kerak. Chiroyli va qulay asbob-uskuna bilan tayyorlangan buyumlarning yuqori sifatlari bo‘lishi, undan foydalanish qulayligi, pishiqligi, mustahkamligi va tayyorlangan buyumning go‘zalligi insonlarga estetik zavq berishi qanoatlantirishi kerak. Asbob-uskunalar har doim sozlangan va ishga shay bo‘lishi, mashg„ulotlarga o‘quvchilar qulay maxsus ish kiyimlarini kiyib kelishlarini kichik maktab yoshidanoq tarbiyalab borish talab etiladi.

Mehnat ta‘limi va kasbga yo‘naltirishda o‘quv mashg„ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta‘lim-tarbiya tizimida xalq hunarmandchiligi sohalaridan foydalanish uchun eng maqbul mashg‘ulotlar turkumi ushbu mashg„ulotlar hisoblanadi.Chunki, xalq hunarmandchiligi sohalarini bajarishda asosiy mashg„ulotlar qo‘l mehnati orqali amalga oshiriladi. Turli materiallarni ishlov berishga tayyorlash, materiallarga issiq va sovuq ishlov berish, kesib va bukib ishlash, rejlash, o‘lchash, pardozlash, silliqlash, jilvirlash, bo‘yash, buyumlarni iste’molga (ko‘riklarga) tayyorlash kabi mashg„ulotlarning asosiy qismi xalq hunarmandchiligi sohalarida qo‘l bilan bajariladi. Xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘rganishda mehnat mashg„ulotlari qo‘lda va qo‘l asboblarida bajariladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat ta‘limi mashg„ulotlarining samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilar mehnati xolis baholanishi lozim. Xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘rganishga asoslangan mehnat ta‘limi

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

mashg,,ulotlari an'anaviy mehnat ta'limi mashg,,ulotlariga nisbatan taqqoslanganda moddiy, xom ashyo ta'minoti ko'pincha mahalliy materiallardan foydalanishi hisobiga bo'ladi. Bu turkumdag'i mashg,,ulotlar o'qitilishi jihatidan boshqa umumta'lim fanlariga nisbatan olib qaralganda, o'zining amaliyligi va ishlab chiqarishga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish fani boshqa o'quv fanlaridan o'zining mujassamlangan fan ekanligi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, ushbu ta'limni tashkil etish jarayonida o'quvchilar umumta'lim fanlaridan olgan bilimlarini keng ko'lamda qo'llaydilar. Bundan tashqari, ushbu ta'limning o'zi ham, o'z tizimida bir qancha soha (turli materiallarga ishlov berish, qishloq xo'jaligi, sanoat, pazandachilik, gazlamashunoslik va boshqa) larni biriktiradi. Ushbu sohalarning har biri esa, bir-biriga o'xshamagan turli xil ishlab chiqarish faoliyati sohalardan hisoblanadi. Yoshlarning mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanadigan o'qituvchilar, murabbiylar, rahbarlar va boshqa mutasaddilar ushbu mashg,,ulotlarning o'ziga xosligini yaxshi farqlashlari lozim bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF – 5712-sodn “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.// <https://lex.uz/ru/docs/4312785>.
2. Сафин Д.В. Мусина Интерактивные методы преподавания и учения – Ташкент 2007-yil
3. Sh.Qurbanov, E.Seytxalilov. “Ta'lim sifatini boshqarish. Toshkent “Turon-Iqbol” 2006
4. Журнал “Инновация – и образование”. Москва. 2006. №3-4 сонлар
5. Снапская Ю.П. – К разработке модели системы проблемного обучения в вузе. Сайт проекта Интернет – конференции 2020й
6. Kuttibekova G.T. The essence and possibilities of application of art pedagogy and art therapy in a secondary educational school // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Research. Vol. 8, No.5, 2020, Part III. ISSN 2056-5852. – pp.151–154.

